
BAYRAM BOLALARGA BIR OLAM QUVONCH VA SHODLIK ULASHDI

Bolalar hayotimiz davomchilari, kelajagimiz egalaridir. Binobarin, ularni asrab-avaylash, har tomonlama barkamol qilib voyaga yetkazish har bir davlat, har bir oila, har bir ota-onaning muqaddas burchidir. O'zbekistonda ham farzandlarimiz ana shunday mehr-muhabbat, ulkan g'amxo'rliklar og'ushida voyaga yetmoqda.

1 iyun -Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni mamlakatimizning barcha hududlarida bo'lganidek, Toshloq tumanida ham kelajagimiz egalariga bo'lgan mehr va e'tiborning yorqin ifodasi sifatida keng nishonlandi. "Bolalarga bering dunyoni" shiori ostida o'tkazilgan tadbirda so'z olganlar bolajonlarni bayram bilan samimiy muborakbod etdilar.

Bayram tadbirida tuman "Barkamol avlod" bolalar markazining ijodkor o'quvchilar tomonidan tayyorlangan dastur namoyish etildi. Kuy-qo'shiqlar yangradi. Bolajonlar raqsi yig'ilganlarda katta taasurot qoldirdi. Bayram tadbirida ishtirok etgan bolajonlarga tashkilotchilar tomonidan sovg'alar ulashildi.

2024-06-01 12:04:15